

O'ZBEKISTONDA ART TURIZMNING RIVOJLANISH TAHLILI

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Turizm fakulteti 3 bosqich talabalari

Nurmatova Xurshida Baxodir qizi

nurmatova.kh@gmail.com

ORCID: 0009-0000-0223-8491

Xolmurodova Laylo Nurali qizi

Xolmurodovalaylo04@gmail.com

ORCID:0009-0000-3606-0679

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda art turizmining rivojlanishi, uning madaniy va iqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi. Art turizmi – sayyohlarni milliy san'at, me'moriy yodgorliklar, zamonaviy ijodiy makonlar, hunarmandchilik va festivallar orqali jalb qiluvchi turizm turi bo'lib, mamlakatning jahon turizm bozoridagi o'rnini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotda art turizmining O'zbekistondagi holati, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmni rivojlantirishga oid qarorlarining art turizmga ta'siri va uning istiqbollari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari art turizmining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'sirini oshirish, mahalliy san'atkor va hunarmandlarga yangi imkoniyatlar yaratish hamda mamlakatning madaniy merosini keng targ'ib qilish uchun tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: art turizmi, madaniy meros, hunarmandchilik, me'morchilik, turizm industriyasi, O'zbekiston.

Abstract: This article analyzes the development of art tourism in Uzbekistan and its cultural and economic aspects. Art tourism is a form of tourism that attracts visitors through national art, architectural monuments, modern creative spaces, handicrafts, and festivals, playing a key role in strengthening the country's position in the global tourism market. The study examines the current state of art tourism in Uzbekistan, the factors influencing its development, and the reforms implemented by the government. In particular, the article reviews the impact of presidential decrees on tourism and their significance for the future of art tourism. The results of the research provide recommendations for increasing the economic impact of art tourism, creating new opportunities for local artists and craftsmen, and promoting the country's cultural heritage more broadly.

Keywords: art tourism, cultural heritage, handicrafts, architecture, tourism industry, Uzbekistan.

Аннотация: В данной статье анализируется развитие арт-туризма в Узбекистане, а также его культурные и экономические аспекты. Арт-туризм — это вид туризма, привлекающий туристов через национальное искусство, архитектурные памятники, современные творческие пространства, ремесла и фестивали. Он играет важную роль в укреплении позиции страны на мировом туристическом рынке. В исследовании рассматриваются текущее состояние арт-туризма в Узбекистане, факторы, влияющие на его развитие, а также реформы, проводимые государством. Особое внимание уделяется влиянию президентских решений, направленных на развитие туризма, на арт-туризм и его перспективы. Результаты исследования содержат рекомендации по повышению влияния арт-туризма на экономику Узбекистана, созданию новых возможностей для местных художников и ремесленников, а также продвижению культурного наследия страны.

Ключевые слова: арт-туризм, культурное наследие, ремесленничество, архитектура, туристическая индустрия, Узбекистан.

KIRISH

Hozirgi kunda sayohatchilar faqat dam olish yoki ko'ngilochar maqsadlarda emas, balki madaniy va estetik zavq olish uchun ham sayohat qilishmoqda. Shunday turizm turlaridan biri bu — art turizm, ya'ni san'atga asoslangan sayohatlar. Bu yo'nalish rassomchilik, haykaltaroshlik, teatr, muzeylar, madaniyat festivallari kabi san'at shakllarini o'rganish va tomosha qilish orqali sayyohlarga yangi tajribalar taqdim etadi. Ushbu maqolada art turizmning mohiyati, tarixi, rivojlanish darajasi hamda O'zbekistonda qanday qonunchilik asosida tartibga solinishi haqida so'z yuritamiz.

Art turizm – bu san'at va madaniyat bilan bog'liq joylarga tashrif buyurish orqali estetik tajriba orttirishni maqsad qilgan turizm turi hisoblanadi. Bunga mashhur muzeylar, san'at galereyalari, teatrlar, san'at festivallari va tarixiy yodgorliklar kiradi. Ushbu turizm yo'nalishi nafaqat madaniy bilimni oshiradi, balki shaxsiy zavq va ruhiy qoniqish beradi.

Art turizmning ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Misr, Yunoniston va Rim imperiyalarida ham sayohatchilar diniy va san'at yodgorliklarini tomosha qilish uchun safar qilishgan. Ammo zamonaviy art turizm XIX–XX asrlarda shakllandi, ayniqsa, Evropada san'at muzeylari va galereyalarining ochilishi bilan bu yo'nalish keng ommalashdi.

Art turizmni o'rgangan olimlar orasida Greg Richards, Crispin Raymond, Melanie K. Smith kabi tadqiqotchilar mavjud. Ular art turizmning ta'siri, madaniy almashinuvdagi roli va turizm sanoatidagi o'rni haqida ilmiy izlanishlar olib

borishgan. Bu yo'nalishda ko'plab dissertatsiyalar, maqolalar va tahliliy ishlar yozilgan. (Greg Richards, 2000-yil)

Art turizm eng ko'p rivojlangan davlatlar qatoriga Fransiya (Parij – Louvre), Italiya (Rim, Florensiya), Ispaniya (Madrid, Barselona), AQSH (Nyu-York – MoMA) va Yaponiya kiradi. Ushbu davlatlar o'zlarining boy san'at merosi, xalqaro ko'rgazmalari, san'at festivallari bilan mashhur. Masalan, Italiyada yiliga millionlab sayyohlar Leonardo da Vinchining asarlarini ko'rish uchun kelishadi.

O'zbekistonda art turizmni rivojlantirish borasida qator hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, 2021-yil 26-yanvardagi Prezident qarorida madaniy meros obyektlarini saqlash, san'at festivallarini rivojlantirish va turizm bilan bog'lash bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Shuningdek, "Yangi O'zbekiston – yangi turizm" konsepsiyasida art turizmni qo'llab-quvvatlash asosiy yo'nalishlardan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Dunyo bo'yicha 2023-yilda art turizm sohasida 280 millionga yaqin sayyohlar madaniy-ma'rifiy yo'nalishlarda safar qilgan. UNESCO ma'lumotlariga ko'ra, san'at festivallari va muzeylarga tashrif buyurish soni oxirgi 5 yilda 35% ga oshgan. O'zbekistonda esa 2022-yilda art va madaniy turizmga oid tadbirlarda qatnashgan sayyohlar soni 1 milliondan oshgan.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi — art turizmning ahamiyatini ochib berish, uning tarixiy va zamonaviy rivojlanishiga baho berish, O'zbekistondagi huquqiy asoslarini tahlil qilish va yoshlarni ushbu turga qiziqtirishdir. Bundan tashqari, art turizm orqali madaniyatlararo muloqotni mustahkamlash va milliy madaniyatimizni dunyoga tanitish yo'llarini ko'rsatish ham ushbu maqolaning muhim jihatlaridan biridir.

Metadalogiya

Ushbu ilmiy maqolani tayyorlashda sifat va miqdoriy tadqiqot metodlaridan kompleks ravishda foydalanildi. Asosiy e'tibor O'zbekistonda art turizmining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish va uning istiqbollarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

Adabiy manbalarni tahlil qilish: Art turizmi konsepsiyasi, uning tarixi va rivojlanish jarayoniga oid xalqaro va milliy adabiyotlar, ilmiy maqolalar, qonunchilik hujjatlari o'rganildi.

Normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, hukumat dasturlari va rasmiy statistik ma'lumotlar asosida art turizmi sohasidagi siyosiy va huquqiy asoslar tahlil qilindi.

Obyekt sifatida tanlangan Art Gallery of Uzbekistan faoliyati o'rganildi: Galereyaning madaniy va turistik ahamiyati, u tomonidan tashkil etilgan ko'rgazmalar va ularning xalqaro va mahalliy turizmga ta'siri tahlil qilindi.

Statistik ma'lumotlarni o'rganish: O'zbekiston Davlat Statistika qo'mitasi va Turizm va madaniy meros vazirligining so'nggi yillardagi rasmiy statistik ma'lumotlari asosida tahlil va dinamik o'zgarishlar ko'rib chiqildi.

Takliflar ishlab chiqish: Olingan ma'lumotlar asosida O'zbekistonda art turizmini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar va strategik takliflar ishlab chiqildi.

Maqola davomida ilmiy obyektivlik, tizimli tahlil va mukammal xulosalar berish prinsiplari asos qilib olindi.

Adabiyotlar tahlili

Maqola tayyorlanish jarayonida art turizmi bilan bog'liq bo'lgan ilmiy va amaliy adabiyotlar keng o'rganildi. Tahlil qilingan adabiyotlar quyidagi guruhlariga ajratildi:

Xalqaro manbalar:

Art turizmning nazariy asoslari, jahon tajribasi va rivojlanish tendensiyalari bo'yicha taniqli tadqiqotchilar – R. Smith, C. Richards, G. Hughes va boshqa olimlarning ilmiy maqola va monografiyalari o'rganildi. Bu manbalar art turizmini madaniy va iqtisodiy hodisa sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Milliy manbalar:

O'zbekistonlik olimlar, xususan, turizm va madaniyat sohasida tadqiqot olib borgan Abdug'aniyev, M. Islomov va Z. Qosimovning ishlaridan foydalanildi. Ushbu manbalar O'zbekistonda art turizmining shakllanishi va rivojlanishi haqida tahliliy ma'lumotlar berdi.

Normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizmni rivojlantirish to'g'risida"gi farmonlari, hukumat qarorlari, Turizm va madaniy meros vazirligi tomonidan qabul qilingan strategik dasturlar tahlil qilindi. Ushbu hujjatlar orqali art turizmi rivojlanishini tartibga soluvchi siyosiy-ijtimoiy asoslar o'rganildi.

Statistik va rasmiy ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi, Turizm va madaniy meros vazirligining hisobotlari, shuningdek, "Uzbekistan Art and Culture Development Foundation" tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlardan foydalanildi. Statistika ma'lumotlari art turizmi rivojlanishining amaliy ko'rsatkichlarini aniqlashda yordam berdi.

Obyekt – Art Gallery of Uzbekistan haqida manbalar:

Galereyaning rasmiy sayti, turli ko'rgazmalar haqidagi hisobotlar, matbuotda chiqqan intervyu va sharhlar tahlil qilindi. Bu orqali galereyaning art turizmda tutgan o'rni va amaliy faoliyati yoritildi.

Tahlil natijalari maqola mavzusi doirasida asosli xulosalar chiqarish va amaliy takliflar berishga xizmat qildi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston — Markaziy Osiyoning yuragida joylashgan, boy madaniy meros va ko'p qirrali san'atga ega mamlakat sifatida art turizmi sohasida katta salohiyatga ega. Ayni paytda O'zbekistonda 7 ta UNESCO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan obidalar mavjud: Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlardagi yodgorliklar sayyohlar e'tiborini tortib kelmoqda. Bu holat mamlakatning madaniy brendi va art turizm markazi sifatidagi mavqeini mustahkamlab bormoqda.

Shuningdek, noyob tabiiy landshaftlar — Qizilqum cho'li, Farg'ona vodiysi, Tyan-Shan tog' tizmasi — turizmni yanada ko'lamli tarzda rivojlantirishga imkon beradi. 2023-yilda 6,6 million xorijiy turistning tashrifi (2022-yilga nisbatan 26,6 foizlik o'sish) mamlakatda turizm infratuzilmasining takomillashayotganidan va mavjud imkoniyatlar samarali ishga solinayotganidan dalolat beradi.

Art turizmni rivojlantirish bo'yicha qator hujjatlar qabul qilingan. Jumladan: PF-5611-sonli Prezident Farmoni (2019-yil) asosida mehmonxonalar uchun soliq imtiyozlari, san'at va madaniyat obyektlari joylashgan hududlarda infratuzilmani modernizatsiya qilish bo'yicha ustuvor yo'nalishlar belgilandi.

"Yangi O'zbekiston – 2026" strategiyasi doirasida turizm xizmatlari eksportini 3 baravar oshirish vazifasi belgilandi, bu esa bevosita san'at va madaniyat yo'nalishlarini ham qamrab oladi.

Ijodiy sanoatlarni rivojlantirish dasturi (2023-yil) doirasida san'at galereyalarini qo'llab-quvvatlash uchun 50 million dollar grant mablag'i ajratildi.

Bu yondashuvlar art turizmini madaniy siyosatning ajralmas qismiga aylantirmoqda.

O'zbekistonda art turizmi ayniqsa urban hududlarda rivojlanmoqda. Quyidagi muhim obyektlar bunga yorqin misol bo'la oladi:

Toshkent shahri san'at markazi sifatida shakllanmoqda. Bu yerda joylashgan Art Gallery of Uzbekistan zamonaviy art-turizmning markaziy obyekti bo'lib, doimiy ekspozitsiyalar bilan bir qatorda xalqaro san'at ko'rgazmalariga mezbonlik qiladi.

Shuningdek, Tasviriy san'at muzeyi, CCB Art Factory kabi platformalarda har yili 20 dan ortiq ko'rgazmalar tashkil etiladi.

Samarqandda ilk bor 2024-yilda o'tkazilgan Xalqaro zamonaviy san'at biennalesi 30 dan ortiq mamlakat ishtirokidagi global madaniy muloqot maydoniga aylandi.

Nukusdagi I.V. Savitskiy nomidagi Davlat san'at muzeyi esa o'zining ikkinchi eng yirik rus avangardi kolleksiyasi bilan tanilgan bo'lib, art turizmdagi noyob brendga aylangan.

Bu ob'ektlar milliy san'atni global auditoriyaga taqdim etishda muhim vositaga aylangan.

Art turizm O'zbekistonda nafaqat madaniyatni ommalashtirish, balki iqtisodiyotga ham sezilarli hissa qo'shmoqda. Turistlar oqimining ko'payishi

mahalliy ishlab chiqaruvchilar, hunarmandlar, restoran va mehmonxonalar tarmog'iga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, madaniy tadbirlar orqali yoshlarning san'atga qiziqishi oshib, bu sohadagi innovatsion loyihalar ko'paymoqda

Turizm uchun mavjud shart-sharoitlar

O'zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati natijasida so'nggi yillarda infratuzilma, xizmatlar sifati, logistika tizimi va yuridik asoslar sezilarli darajada takomillashdi. Mamlakatning ochiqlik siyosati, soddalashtirilgan viza rejimi, hamda "turistga do'stona" muhit yaratish borasida amalga oshirilgan islohotlar art turizmi kabi yuqori darajadagi madaniy yo'nalishlar uchun ham zamin yaratdi.

Logistika va infratuzilma:

Xalqaro aviatashuvlar – Toshkent, Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlarida yangi terminal va xizmatlar joriy qilindi. Toshkentdan dunyoning 30 dan ortiq davlatiga to'g'ridan-to'g'ri reyslar mavjud. Ichki transport – "Afrosiyob" tezyurar poyezdlari orqali Samarqand, Buxoro, Qarshi, Termiz kabi shaharlarga tez va qulay yetib borish mumkin. Bu art ob'ektlar joylashgan shaharlarga kirishni osonlashtiradi.

Turar joy tizimi – 2023-yil yakuniga kelib O'zbekistonda ro'yxatdan o'tgan mehmonxona va hostel soni 1600 dan oshdi. Xorijiy investorlar tomonidan ochilgan xalqaro brendlar — Hilton, Hyatt, Radisson — turizm infratuzilmasining yuqori darajasini ko'rsatadi.

Yuridik va me'yoriy asoslar:

2021-yil 9-fevraldagi Prezident farmoni (PF-6165-son) – Turizm sohasini yanada rivojlantirish strategiyasi;

Turizm kodeksi loyihasi – 2022-yilda muhokamaga qo'yilgan va bugungi kunda bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etilmoqda;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Turizm vazirligi tashkil qilinishi — art turizmni yakkama-yakka tartibda ilgari surish imkoniyatini yaratdi.

Raqamli xizmatlar va qo'llab-quvvatlovchi platformalar:

E-VISA portalı – ko'plab xorijiy fuqarolar uchun elektron vizani olish imkonini beradi;

Uzbekistan.travel, Afisha.uz, Spot.uz – art tadbirlar, muzeylar va ko'rgazmalar haqidagi yangiliklarni doimiy yoritib boradi;

GuideBot, QR-code tizimi – Toshkent, Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda turistik ob'ektlar bo'yicha interaktiv yo'riqnoma sifatida ishlaydi.

Madaniy muhit va san'at ob'ektlariga kirish imkoniyati:

Toshkent shahridagi Hirayama Ikuo San'at Galereyasi, O'zbekiston Davlat San'at muzeyi, Toshkent fotosuratlar uyi, hamda yangi ochilgan art maydonlar (gallery.lab, ZeroLine, Bonum Factum) orqali turli toifadagi art ishqibozlari va sayyohlar uchun esda qolarli muhit yaratilmoqda.

Talabalar, yosh rassomlar, va ijodkorlar uchun Ijodiy haftaliklar (Tashkent Design Week, Art Week Uzbekistan) kabi yirik tadbirlar o'tkaziladi. Bular art turizmi uchun asosiy tayanch nuqtalar hisoblanadi.

Art Gallery of Uzbekistan'ning art turizmdagi ahamiyati



O'zbekiston Respublikasida art turizm so'nggi yillarda jadal rivojlanib, madaniy merosni saqlash, targ'ib qilish va turistlar uchun yangi tajriba maydoni sifatida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu yo'nalishda zamonaviy san'at markazlari, jumladan, Art Gallery of Uzbekistan alohida o'rin tutadi.

Art Gallery of Uzbekistan 2004-yilda Toshkent shahrida ochilgan bo'lib, Mustaqillik shohko'chasida, shaharning markaziy hududida joylashgan. Galereya 3 500 kvadrat metrdan ortiq maydonga ega, zamonaviy ekspozitsiya zallari va interaktiv muhit bilan jihozlangan. Bu galereyada har yili o'nlab mahalliy va xalqaro ko'rgazmalar, tanlovlar, master-klasslar va forumlar o'tkaziladi. Bunday tadbirlar art turizmini rivojlantirish, madaniy muloqot va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekistonda turizm sohasiga katta e'tibor qaratilib, yangi yo'nalishlar va loyihalar amalga oshirilmoqda. 2023-yilda xorijiy turistlar soni 6,6 milliondan oshdi, turistik xizmatlar eksporti esa 2 milliard dollardan ortdi. Bu ko'rsatkichlar art turizm va madaniy tadbirlarga bo'lgan qiziqish ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Art Gallery of Uzbekistan zamonaviy o'zbek san'atini xalqaro maydonga olib chiqish, yosh va iqtidorli rassomlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek, Toshkentning turistik jozibadorligini oshirishda muhim platformaga aylangan. Galereya faoliyati orqali nafaqat san'at asarlarini tomosha qilish, balki ularni chuqur anglash, san'at orqali yangi tajriba va madaniy aloqalar shakllantirish imkoniyati yaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Art Gallery of Uzbekistan art turizmning rivojlanishida, zamonaviy san'atni targ'ib qilish va O'zbekistonni global madaniy maydonda tanitishda yetakchi markazlardan biri sifatida faoliyat yuritmoqda

O'zbekistonda art turizmni rivojlantirish bo'yicha takliflar

1. Milliy san'at galereyalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish

Zamonaviy texnologiyalar: QR-kodli ma'lumotlar, audio-gidlar va virtual ko'rgazmalarni joriy etish (CEDR.uz ma'lumotlariga ko'ra, 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan foydalanish rejalashtirilgan).

Interaktiv muhit: Raqamli ekranlar va yoritish tizimlari orqali san'atni turistlar uchun qulayroq qilish (2026-yilga qadar "turizm mahallalari" sonini 175 taga yetkazish maqsadi).

2. Raqamli marketing strategiyasini ishlab chiqish

Kontent ishlab chiqish: Art Gallery of Uzbekistan ko'rgazmalari haqida video turlar va rassomlar intervyularini TripAdvisor va UNESCO platformalarida targ'ib qilish.

Ijtimoiy tarmoqlar: Instagram va YouTube orqali san'at loyihalarini global auditoriyaga yetkazish (2023-yilda 6,6 million xorijiy turist tashrifi statistikasi asosida).

3. Xalqaro festivallar va biennialarni tashkil etish

Madaniy brend: "Art Week Tashkent"ni yillik xalqaro festivalga aylantirish, O'zbek-Yaponiya hamkorlik ko'rgazmalarini kengaytirish.

Biennale: Samarqand va Nukusda zamonaviy san'at biennalelarini tashkil qilish (UNESCO ro'yxatidagi obidalar bilan integratsiya).

4. Turizm agentliklari bilan hamkorlikni kuchaytirish

Art-pack xizmatlari: San'at galereyalarini "Toshkent-Samarqand-Nukus" madaniy marshrutiga kiritish (2030-yilga qadar 3 million ziyorat turistini jalb qilish rejasi).

Master-klasslar: Rassomlar ustaxonasida amaliy darslar va suvenir ishlab chiqarishni taklif qilish.

5. Xalqaro press-turlar va influencerlar ishtirokini ta'minlash

Media hamkorlik: BBC, National Geographic kabi kanallar uchun "O'zbekiston san'ati" hujjatli filmlarini ishlab chiqarish.

Bloggerlar jalb qilish: Xalqaro san'atshunoslar va bloggerlar uchun Art Gallery of Uzbekistan'da maxsus turlar tashkil etish (2024-yilda "turizm vakillari" instituti joriy etilishi rejalashtirilgan).

Qo'shimcha choralar:

Kadrlar tayyorlash: Madaniyat va turizm sohasida xalqaro standartlarga mos mutaxassislar tayyorlash (Uza.uz ma'lumoti).

Investitsiyalarni jalb qilish: Xususiy sektor hamkorligida san'at loyihalari uchun grantlar ajratish (2030-yilga qadar turizm eksportini 5 milliard \$ ga oshirish maqsadi)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-yanvardagi PQ-4169-sonli "Turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026 yillarda yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi rasmiy veb-sayti: <https://www.motach.gov.uz>

4. "O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirish konsepsiyasi – 2030" hujjati.

5. O'zbekiston Davlat Statistika qo'mitasi: <https://stat.uz> — Turizm va madaniyat bo'yicha yillik statistik hisobotlar, 2023.

6. Art Gallery of Uzbekistan rasmiy sahifasi va kataloglari (2021–2024 yillar).

7. UNESCO. (2021). Culture and Creative Tourism Development Strategy. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

8. Komilova, D. (2021). San'at va madaniyat asosida turizmni rivojlantirish yo'nalishlari. Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy maqolalar to'plami.

9. Karimov, S. (2022). O'zbekistonda madaniy turizmning istiqbollari. "Ilm va taraqqiyot" jurnali, 2-son.

10. Greg Richards, C. R. (2000-yil). "Creative Tourism". *ATLAS News*, 23, pp. 16–20.

11. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniyat meros vazirligi hisobotlari (2023).

12. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

13. UNESCOning O'zbekiston bo'yicha hisobotlari (2022–2023).

14. Kun.uz

15. Gazeta.uz